

FE'L VA UNING USLUBIYATI

*Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna**Termiz davlat universiteti akademik litseyi**Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l va uning uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Bunda fe'lning munosabat shakllari, vazifa shakllari, nisbat va yasalishi, tuzilishi hamda sintaktik vazifasi kabi mavzular yoritilgan.

Kalit so'z: Nisbat, munosabat va lug'aviy shakllar, asos, qo'shimchalar, sodda va qo'shma fe'llar

Fe'l — harakat, holat yoki hodisani ifodalovchi mustaqil so'z turkumidir. O'ziga xos zamon, mayl, nisbat kabi grammatik kategoriyalarga ega.

Nima qilmoq? nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs yoki narsalarning harakat va holatini ifodalashgan so'z turkumi **fe'l** deyiladi.

Fe'llardan anglashilgan harakat va holat ma'lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi.

Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga bo'linadi.

Shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar harakat fe'llari hisoblanadi. Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar esa holat fe'llari sanaladi.

Tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanadigan fe'llar o'timli fe'llar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan fe'llar o'timsiz fe'llar sanaladi. M: kitobni o'qidi (o'timli). U yugurdi (o'timsiz).

Ikki asosdan tashkil topgan fe'llar **qo'shma fe'llar** deyiladi.

Qo'shma fe'llarning tarkibiga ko'ra ikki turi mavjud:

1. Fe'l bo'lmagan so'z + fe'l shaklidagi qo'shma fe'llar. Masalan: Ot+fe'l: havas qilmoq, taklif qilmoq

Sifat+fe'l: norozi bo'lmoq, yaxshi ko'rmoq

Taqlid so'z+fe'l: chirs etmoq, taq etmoq

Undov so'z+fe'l: oh urmoq, dod solmoq

2. Fe'l + fe'l shaklidagi qo'shma fe'llar.

Masalan: olib bermoq, sotib olmoq, kelib ketmoq...

Bunday qo'shma fe'llarning ikkinchi qismi o'z ma'nosida qo'llanmaganda (atash ma'nosini yo'qotganda) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi hosil bo'ladi.

Masalan: o'qib chiqdi (o'qidi, lekin chiqmadi, yig'lab yubordi (yig'ladi, lekin yubormadi).

Qo'shma fe'llar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Asoslari hamisha ajratib yoziladi.
2. Bitta so'roqqa javob bo'ladi.
3. Ikki asosdan iborat bo'ladi.
4. Bitta sintaktik vazifa bajaradi.
5. Ikkala asosi ham ma'no mustaqilligiga ega bo'ladi.
6. Asoslari orasida boshqa so'z va qo'shimchalarni qo'llab bo'lmaydi.
7. Asoslari bitta urg'uga ega bo'ladi.

Fe'llar qanday harakat-holatni ifodalashiga ko'ra nutqiy faoliyat fe'llari (chaqirmoq) , aqliy faoliyat fe'llari (o'ylamoq), jismoniy faoliyat fe'llari (yugurmoq), holat fe'llari(titramoq) kabi ma'no guruhlariga ajraladi.

Fe'l asoslariga qo'shib, gapda kesim vazifasida qo'llanilishiga xoslovchi shakllar fe'llarning munosabat shakllari hisoblanadi. Fe'llarning zamon, mayl,shaxs-son qo'shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Bu shakllarga ega bo'lgan har qanday fe'l gapda kesim vazifasida keladi. Yuqoridagi ma'no va shakllardan xoli bo'lgan fe'l asosi fe'lning noaniq shakli hisoblandi va bu shakl - moq qo'shimchasi yordamida ifodalanadi.

Fe'llar (sof fe'l, ravishdosh)ga qo'shiladiganlari fe'llarning munosabat shakllari hisoblanadi: zamon, shaxs-son, mayl shakllari

Zamon — harakat bajarilgan vaqt:

o'tgan (-gan, -di, -b-ib),hozirgi (-yapti,-moqda, -(a)yotir,-(a)yotgan,),kelasi (- (a)jak,-gusi,-gay -a,-y,-r -ar)

Shaxs-son — harakat bajaruvchisining shaxsi, birlik yoki ko'pligini ko'rsatadi:

1. -m, -man | -k, -miz 2. -ng, -san | -ngiz, -siz 3. -di I-dilar (Keldim, kelaman | keldik, kelyapmiz)

Mayl shakllari — harakatdagi munosabat holati:

Xabar mayli: ~ shakli yo'q buyruq-istak: ~, -ay,-y,-gin,-gil,-sin,maqsad mayli: -moqchi,shart mayli: -sa

Lug'aviy shakl yasovchilar – asosga birozgina qo'shimcha ma'no qo'shadi, xolos.

Fe'lning vazifa shakllari:fe'llar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, kesim, ega, to'ldiruvchi,hol, aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe'l

maxsus shakllarlarga ega bo'ladi. Turli gap bo'laklari vazifasida kelish uchun xoslangan fe'l shakllari fe'ning vazifa shakllari sanaladi.

Fe'llarning to'rt vazifa shakli mavjud.

1) sof fe'l (~) 2) sifatdosh(-r,-ar,-mas, -gan,-ydigan,-adigan,-ayotgan,-yotgan,-gusi),

3) harakat nomi(-ish,-sh,-maslik,-v,-uv,-moq,-mak),

4) ravishdosh(-b,-ib,-a,-ay,-y,-gani,-guncha,-gancha,-may, -mayin, -masdan),

Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari nisbat shakllari sanaladi. Nisbat shakllari fe'ning asos qismidan keyin qo'shiladi.

Fe'l 5ta nisbat shakliga ega: 1) aniq nisbat.(~); 2) o'zlik nisbat(-il,-l,-in,-n) 3) ortirma nisbat(-t,-tir,-dir,-ar,-kaz,-qaz,-sat,-iz,-ir) ; 4) majhul nisbat(-il,-l,-in,-n); 5) birgalik nisbati(-ish,-sh).

Ravishdoshning -a// -y, -(i)b shakllariga qo'shib, o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotgan, asosdan anglashilgan harakatning bosqichlari (boshlanishi, davom etishi, tugallanishi) va tarsi (tezligi, imkoniyati)ni bildiruvchi boshlamoq, olmoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq singari fe'llar ko'makchi fe'llar hisoblanadi. Ko'makchi fe'lni qabul qiluvchi ravishdosh yetakchi fe'l hisoblanadi. Ko'makchi fe'l faqat yetakchi fe'l bilan birgalikda qo'llanadi. Ana shu xususiyati bilan mustaqil qo'llanuvchi olmoq (kitobni olmoq), tugatmoq(darsni tugatmoq), turmoq (uyqudan turmoq), tashlamoq (qog'oz tashlamoq) fe'llaridan farq qiladi.

KO'MAKCHI FE'LLAR : Ishlay boshladi, ishlab yuribdi, ishlab turibdi, ishlab yotibdi, ishlab bo'ldi, ishlab chiqdi, ishlab qo'ydi, ishlay oladi, ishlab yubordi, ishlab ko'rdi singari so'zlarga e'tibor bersangiz, ularning barchasida bir umumiy ma'no // ishlamoq // ma'nosi bor. Bu ma'no ravishdoshning -a // -y, -(i)b shakllarini olgan birinchi qismdan anglashiladi. Ikkinchi qism esa birinchi qismdagi leksik ma'noga turli qo'shimcha ma'nolarni (harakatning boshlanishi, davom etishi, tugallanishi, oson bajarilgani, tez bajarilgani, bajarishga uringanligi, bajara olishi) kabi ma'nolarni yuklaydi. Bunday so'zlar ham tuzilishiga ko'ra fe'l + fe'l tarzida bo'ladi. Ravishdoshning -a // -y, -(i)b shakllarini olib, asosiy leksik ma'no bildiradigan birinchi qism - yetakchi fe'l hisoblanadi.

Birinchi qismga (yetakchi fe'lga) qo'shib, unga turli qo'shimcha ma'nolarni yuklaydigan va yetakchi

Fe'ning leksik ma'nosini o'zgartirib yubormaydigan ikkinchi qism esa – ko'makchi fe'l hisoblanadi.

Ko'makchi fe'l yetakchi fe'lga qo'shib yangi fe'l hosil qilmaydi. Shuning uchun bunday fe'llar ko'makchi fe'l deyiladi.

Fe'llarning yasalishi

Fe'llar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Morfologik usul: so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali fe'l yasalishi.

-la: gulla, o'yla; **-a (-y):** yasha, qoray; **-r (-ar):** oqar; **-ik (-iq):** yo'liq, hayiq; **-ir (-ur):** gapir; **-ira (-ila):** yaltira, gurilla.

Sintaktik usul bilan murakkab va juft fe'llar yasaladi: **xabar berdi, xursand bo'ldi; sotib oldi; bordi-keldi.**

Murakkab fe'llarda asosiy ma'no ifodalovchi birinchi so'z – **yetakchi fe'l**, qo'shimcha ma'noli ikkinchi qism esa **ko'makchi fe'l** deyiladi: gapirib tashladi.

Mustaqil holda ma'no bildirmaydigan **edi, ekan, emish** to'liqsiz fe'llar tuslanadi: aytgan edim, aytgan eding, aytar ekansan.

FE'L YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING IMLOSI:

[-la] qo'shimchasi ayrim otlardan fe'l yasaganda:

- 1) tovush tushadi: yig'i + la = yi'g'la; 2) tovush almashadi: ong + la = angla;
- 3) tovush ortadi: ega + la = egalla;

[-a] qo'shimchasi ayrim ot va sifatlardan fe'l yasaganda:

- 1) tovush tushadi: o'yin + a = o'yna; qiyin + a = qiyna;
- 2) tovush almashadi: son + a = sana; ot + a = ata; yosh + a = yasha;

[-ay] qo'shimchasi ayrim sifatlardan fe'l yasalganda:

- 1.tovush tushadi: past + ay = pasay; sust + ay = susay; ulug' + ay = ulg'ay;
- sariq + ay = sarg'ay.

[-illa] qo'shimchasi tarkibida v yoki u bo'lgan taqlid so'zlardan fe'l yasaganda:

- 1.tovush almashadi: shov + illa = shovulla; gur + illa = gurulla.

[-ir] qo'shimchasi taqlid so'zdan fe'l yasaganda:

- 1) tovush almashadi: tuf + ir = tupir.

[-ar] qo'shimchasi sifatdan fe'l yasaganda:

- 1)tovush tushadi: qizil + ar = qizar. O'zbek tilida affiksatsiya usuli bilan fe'ldan fe'l yasalmaydi

Shuning uchun quyidagi qo'shimchalar ko'rinishidan so'z yasovchiga o'xshasada, lekin so'z yasamaydi.

-la, -kila, -g'ila, -g'i, -ka, -(i)msira, -(i)nqira --- bu qo'shimchalar fe'lning lug'aviy shakl yasovchilari hisoblanadi. Fe'lning lug'aviy shakl yasovchilari hisoblanadi.

Fe'lda ifodalangan harakat yoki holatning bajaruvchi shaxsini, bu shaxsning bitta yoki ko'p ekanligini bildiruvchi shakllar **shaxs-son** shakllari sanaladi.

Fe'llarning **I** va **II** shaxsi maxsus shakllar orqali ifodalanadi. **III** shaxsda esa zamon qo'shimchalari shaxs ma'nosini ham ifodalaydi.

O'tgan zamonning -di hamda kelasi zamon shart mayli -sa shakllaridan so'ng -m, -ng,-k,-ngiz qo'shimchalari;ravishdosh, sifatdosh shakllari hamda sof fe'ning hozirgi zamon shakllari hamda sof fe'ning hozirgi zamon shakllaridan so'ng -man,-miz,-san,-siz qo'shimchalari qo'llaniladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Irisqulov Tilshunoslikka kirish-T, 1992 .
2. A. Nurmonov. B. Yo'ldoshev Tilshunoslik va tabiiy fanlar .- T : "Sharq" , 2001 .
3. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" -T, 2008.
4. Nargiza Erkaboyeva "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami", Toshkent 2019.
5. Ziyonet.uz
6. Wikipedia